

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BEKMURODOVA GO‘ZAL ADHAMOVNA

**TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING
TEXNOLOGIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.11 - Marketing**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Bekmurodova Go‘zal Adhamovna

Tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing
texnologiyalari samaradorligini oshirish yo‘llari.....3

Бекмурадова Гузал Адхамовна

Пути повышения эффективности технологий цифрового маркетинга
в деятельности коммерческих банков.....39

Bekmurodova Guzal Adkhamovna

The ways to improve the efficiency of digital marketing technologies in the
activities of commercial banks.....77

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....82

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BEKMURODOVA GO‘ZAL ADHAMOVNA

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING
TEXNOLOGIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.11 - Marketing

Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.DSc/Iqt177 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan. Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Mustafakulov Sherzod Igamberdievich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Boltabaev Mahmudjon Rustamovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jumaev Nodir Hosiyatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Dilshod Haqberdievich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Toshkent moliya instituti**

Dissertasiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz

Dissertasiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-72. faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertasiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.P. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar rais o'rinbosari,
i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertasiyasi annotasiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida texnologik innovasiyalarning rivojlanishi hamda kiber xavf-xatarlarning tobora avj olishi axborot texnologiyalar hamjamiyatining ilmiy, ekspert doiralari oldiga hal etilishi dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni qo'yimoqda. Gartner agentligining so'nggi malumotlariga ko'ra, "global axborot texnologiya xarajatlari 2023-yilda 4,5 trillion AQSh dollarni tashkil etishi va bu 2022-yilga nisbatan 2,4 foizga ko'p bo'lishi" prognoz qilingan. Inflatsiya iste'molchilarning xarid qobiliyatini pasaytirishda va qurilma xarajatlarini kamaytirishda davom etayotgan bo'lsada, korxonalar va tashkilotlarning axborot texnologiyalariga xarajatlari yuqori bo'lib qolishi kutilmoqda¹. Shuningdek, "Nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi"². Ushbu holatlar iqtisodiyotning lokomotivi bo'lgan bank-moliya tizimining jahon iqtisodiyoti barqaror rivojlanishidagi roli nechog'liq yuqori ekanligidan, binobarin, bu boradagi ilmiy izlanishlarni yangi zamonaviy formatda olib borish zarurligidan dalolat beradi. Dunyoda bank faoliyatini transformasiya qilish, sohaga raqamli texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etish, kiber xavf-xatarlarni oldini olish, banklarda raqamli marketing texnologiyalarini rivojlantirish, pandemiya sharoitida banklar tomonidan masofaviy xizmatlar ko'lamini oshirish kabilar xalqaro darajada amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishini tashkil etmoqda.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarning bank faoliyatida raqamli bank marketing texnologiyalarining turli vositalaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, raqamli bank marketing texnologiyalarining samaradorligini baholash hamda uning bank faoliyati iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini empirik tadqiqotlar o'tkazish orqali o'rganish masalasi chuqur tahlil etilmagan. Shuningdek, pandemiya davrida raqamli bank marketing faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish mexanizmiga doir tadqiqot ishlari yetarli emas. Raqamli bank marketing texnologiyalari mahsulotlari iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, ushbu mahsulotlarni mijozlarga yetkazishda xavfsizlik darajasini ta'minlash, yaratilgan mahsulotlarni rivojlangan davlatlar raqamli bank bozoriga olib chiqish, bundan tashqari raqamli bank marketing texnologiyalari vositalarini tijorat banklariga keng targ'ib etish bo'yicha muammolarning mavjudligi va ularning ilmiy-metodologik jihatdan o'rganilmaganligi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini yanada oshiradi.

O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga bozor mexanizmlarini izchillik bilan joriy etish, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish, raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, davlat

¹<https://www.gartner.com/en/newsroom/press-releases/2023-01-18-gartner-forecasts-worldwide-it-spending-to-grow-2-percent-in-2023>

²<https://kun.uz/news/2020/07/06/raqamli-iqtisodiyot-rivojlanish-trendlari-va-xususiyatlari>

kompaniyalarini transformasiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini tashkil etadi. Mazkur iqtisodiy islohotlar doirasida "tijorat banklarining transformasiya jarayonini yanada faollashtirish", "mijozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish", "tijorat banklari boshqaruviga raqamli marketingni kiritish, bank faoliyati strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishning asosiy mezonlarini tizimlashtirish" bo'yicha dolzarb vazifalarning belgilanganligi O'zbekiston Respublikasida bank biznesining rivojlanishini, bank mahsulotlari va xizmatlarini bozorga olib chiqish uchun avtomatlashtirish, eng yangi texnikaviy vositalar va ilg'or bank texnologiyalarini joriy qilish, raqamli bank marketing strategiyasining xizmatlar tarkibidagi salmog'i va sifati darajasini oshirish bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruratini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4022-son "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizasiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³.

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida ishlab chiqilgan: Online banking and digital finance (AQSh, FinTech), MSc Digital Banking and Finance (Buyuk Britaniya), https://www.global-business-school.org/info/program_description/masters-degree-programs/master-digital-financial-management-online?ysclid=14zeg3vf1n935842036, https://www.lse.ac.uk/Statistics/Research/Probability-in-Finance-and-Insurance?from_serp=1; Toulouse School of National Bureau of Economic Research (NBER). https://www.nber.org/papers?page=1&perPage=50&sortBy=public_date; Wharton School of the University of Pennsylvania. <https://www.wharton.upenn.edu/research-centers/>; Massachusetts Institute of technology (MIT). <https://economics.mit.edu/faculty/afink>; Institute for Economic Policy Research of the Stanford University. <https://siepr.stanford.edu/people/senior-fellows>; Department of Economics, Columbia University. <https://econ.columbia.edu/>; London School of Economics and Political Science. <https://www.stir.ac.uk/courses/pg-taught/digital-banking-finance/>, Economics (TSE). <https://www.tse-fr.eu/solving-key-economic-and-social-issues>; International Association of Insurance Supervisors. <https://www.iaisweb.org/home>; European Insurance and Occupational Pensions Authority. <https://www.eiopa.europa.eu/>; European insurance and reinsurance federation <https://www.insuranceeurope.eu/search/type/Publication>; Swiss Re Institute. <https://www.swissre.com/>; The Geneva Association. <https://www.genevaassociation.org/publications>; Insurance Information Institute. <https://www.iii.org/>; McKinsey & Company. <https://www.mckinsey.com/search?q=insurance%20industry>; Digital Banking Institute (Индонизия),

Tijorat banklarida raqamli marketing faoliyati rivojlanishining asosiy yoʻnalishlari bilan bogʻliq koʻp qirrali tadqiqot ishlari jahonning nufuzli ilmiy, tahliliy markazlari va oliy taʼlim muassasalari, sohaga aloqador xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, jumladan, Online banking and digital finance (AQSh, FinTech), MSc Digital Banking and Finance (Buyuk Britaniya), National Bureau of Economic Research (NBER), Wharton School of the University of Pennsylvania, Massachusetts Institute of Technology (MIT), Institute for Economic Policy Research of the Stanford University, Columbia University (AQSh), London School of Economics and Political Science (LSE) (Buyuk Britaniya), Toulouse School of Economics (TSE) (Fransiya), Norwegian School of Economics (NHH) (Norvegiya), International Association of Insurance Supervisors (IAIS), European Insurance and Occupational Pensions Authority (Eiopa), Insurance Information Institute, McKinsey & Company (AQSh), Digital Banking Institute (Indoneziya), Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации, Российский экономический университет им. Г.В. Плеханова (Rossiya), Белорусский государственный экономический университет (Belarus), Toshkent moliya instituti va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (Oʻzbekiston) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Tijorat banklarida raqamli bank marketing texnologiyalari faoliyatini rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari boʻyicha olib borilgan izlanishlar asosida quyidagi ilmiy natijalar olingan: Samarali maʼlumotlarni qayta ishlash dasturlari va tezkor onlayn xizmatlar bank operatsiyalari samaradorligini oshirishi, xarajatlarni kamaytirishi va tejamkorlikni taʼminlashi rivojlantirishning muhim omili ekanligi matematik modellar asosida aniqlangan (Online banking and digital finance (AQSh); raqamli bank marketingining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini hisoblash usullari oʻrganilgan (MSc Digital Banking and Finance (Buyuk Britaniya)); banklar faoliyatida transformasiya jarayonlari ularning raqamlashish jarayonini tezlashtirishga hamda yangi yaratilayotgan raqamli bank texnologiyalarini qoʻllashni metodologik masalalari asoslangan (National Bureau of Economic Research (NBER); tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalarini qoʻllash orqali bank biznesini rivojlantirish zarurligi metodologik jihatdan asoslangan (Wharton School of the University of Pennsylvania); banklar sunʼiy intellektdan foydalanish orqali bank xizmatlari sifatini oshirish masalalari oʻrganilgan (London School of Economics and Political Science (LSE); raqamli marketing byudjetlarini miqdoriy asoslash zarurati, rasmiylashtirilgan tahlil algoritmi bilan boshqaruv hamda moliyaviy usullardan notoʻgʻri foydalanish masalalari oʻrganilgan (Toulouse School of Economics, Institute for Economic Policy Research of the Stanford University, Columbia University); raqamli marketing texnologiyalarini samaradorligini baholash miqdoriy usullar yordamida baholash ishlab chiqilgan (International Association of Insurance Supervisors (IAIS); bank mahsulotlarini taqdim etish, sifatli xizmat koʻrsatish va mahsulot

turlarini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirishni ta'minlash taklif etilgan (Massachusetts Institute of Technology (MIT); raqamli bank marketing xizmatini amalga oshirish mexanizmi yaratilgan (Digital Banking Institute (Indoneziya)); raqamli bank marketing texnologiyalaridan foydalanishning konseptual asoslari va asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan (Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации, Российский экономический университет им. Г.В. Плеханова).

Jahonda raqamli bank marketing texnologiyalari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha, jumladan, quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: Tijorat banklarida raqamli mahsulotlardan samarali foydalanish uslublarini takomillashtirish, raqamli bank marketing faoliyatini rivojlantirish orqali mijozlar sonini oshirish masalalari, tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalarini qo'llashning metodologik asoslarini takomillashtirish, raqamlashtirish bank daromadini oshirishning ustuvor yo'nalishi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalarining asosiy yo'nalishlari xorijlik olimlar D.Chaffey, T.Abyazov, V.Asaul, M.E.Porter, J.E.Heppelmann, E. Daniel, H.Wilson, M.McDonald, J.Ward, A. Parsons, M. Zeisser, R. Waitmanning ilmiy ishlarida keng yoritilgan⁴.

MDH mamlakatlari olimlari, xususan, Ye.P.Arends, Ye.P.Jarkovskaya, L.V.Plaxova, I.B.Romashova, N.P.Saxirova, V.N.Smagin, V.A.Shapkin, Ye.V.Svetkova, I.O.Arlyukova, G.V.Chernova, N.S.Plaskova, Ye.E.Zerkal', L.A.Drobozina, I.Popova, O.Kupchenko, V.A.Poltorak, L.F.Romanenko, T.V.Bakun, I.F.Obuxovskaya, N.M.Rudneva, Yu.V.Kulakova, O.Z.Lobkovskaya, V.K.Krilov, M.O.Slesarevaning ilmiy ishlarida raqamli bank faoliyatini rivojlantirishning ayrim yo'nalishlari tadqiq etilgan⁵.

⁴ Chaffey, D. (2014) Digital Business and E-Commerce Management , 6th edn, Financial Times/Prentice Hall, Harlow; Abyazov T., Asaul V. On competitive potential of organization under conditions of new industrial base formation // SHS Web of Conferences. 2018. Vol. 44. 00003; Porter, M.E. and Heppelmann, J.E. (2014) How smart, connected products are transforming competition, Harvard Business Review, 92(11), 64–88; Daniel, E., Wilson, H., McDonald, M. and Ward, J. (2001) Marketing Strategy in the Digital Age, Financial Times/ Prentice Hall, Harlow; A. Parsons, M. Zeisser, R. Waitman⁴ (1996) Organising for digital marketing, McKinsey Quarterly, 4, 183–92.

⁵ Аренде Е.П. Банковское дело/ Е.П.Аренде.-М.: Омега-Л, 2011.-285с.; Жарковская Е.П. Банковское дело: учебник/ Е.П. Жарковская-4-е изд, испр. и доп.-М.: Омега-Л, 2009.-452 с.; Жарковская Е.П.Банковское дело: учебное пособие/ Е.П.Жарковская.-М.: Омега-Л, 2009.-285 с.; Ковалев В.В. Финансовый менеджмент, теория и практика/ В.В.Ковалев-2-е изд., перераб. и доп. - М.: Проспект, 2008.-1024 с.; Лукасевич, И.Я. Финансовый менеджмент: учебник / И.Я.Лукасевич. - М.: Эксмо, 2008. – 768 с.; Плахова Л.В.Основы менеджмента: учебное пособие/ Л.В.Плахова. - М.: КНОРУС, 2009.- 496 с.; Ромашова, И.Б. Финансовый менеджмент. Основные темы. Деловые игры: учебное пособие для вузов/ И.Б. Ромашова. - М.: КНОРУС, 2009.-336 с.; Сахирова, Н.П.Страхование/ Н.П.Сахирова.- М.: Проспект, 2010.-744 с.; Смагин В.Н.Финансовый менеджмент/ В.Н. Смагин. - М.: КНОРУС, 2009.-38 с.; Шапкин В.А. Управление портфелем инвестиций ценных бумаг / А.С.Шапкин. - М.: Данков и К, 2010.-512с.; Цветкова Е.В., Арлюкова И.О. Риски в экономической деятельности: Учебное пособие. СПб.: Питер, 2011. – 630 с.; Чернова Г.В. Практика управления рисками на уровне предприятия. - СПб.: Питер, 2010. – 340 с.; Пласкова Н.С. Экономический анализ: учебник – 2-е изд. Перераб.и доп –М.:Эксмо, 2009. -704 с.;Зеркаль Е. Е. Обзор новейших инструментов продвижения банковских услуг в условиях усиления влияния цифровизации // Маркетинг и логистика. – 2021. – 1 (33). — с. 17-33.; Дробозина Л.А. Финансы. Денежное обращение. Кредит /под редакцией проф. Л.А. Дробозиной - М.: ЮНИТИ Финансы. 2010; Попова И. В. Влияние маркетинговых инструментов на деятельность банков / И. В. Попова, Ю. П. Назарова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 2 (106). — С. 561-566.; Купченко О. Маркетинговые исследования. Украинская консалтинговая сеть — 2000. — [Электронный ресурс] — Режим доступа:

O‘zbekistonlik iqtisodchi - olimlar S.S.Gulyamov, O.Umarov, R.H.Ayupov, T.A.Akramov, G.R.Boltabaeva, X.P.Abulqosimov, N.X.Jumaev, M.R.Boltabaev, T.Sh.Shodiev, Sh.I.Mustafakulov, A.R.Norov, O.F.Aliqoriev, F.I.Mirzaev, A.A.Omonov, N.I.Askarov, A.A.Gulyamov, Z.A.Hakimov, O.B.Sattarov, B.T.Bayxonov, U.Mahmudovlarning ilmiy ishlarida iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlari hamda tijorat banklarini raqamlashtirishni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari qisman tadqiq etilgan⁶.

Biroq, yuqorida qayd etilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarini o‘rganish natijalari raqamli marketing texnologiyalarining nazariy, metodologik jihatlari va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari kompleks, tizimli hamda yaxlit shaklda chuqur o‘rganilmaganligini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda tijorat banklari faoliyatini raqamlashtirish orqali ularning raqamli marketing faoliyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi va mazkur muammoning iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada o‘rganilmaganligi ushbu muammoning tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo‘ldi.

[http://www.ifc.org/wps/wcm/connect/ fa0137804b5f](http://www.ifc.org/wps/wcm/connect/fa0137804b5f) Официальный сайт ОАО «Сбербанк России». — [Электронный ресурс] — Режим доступа: <http://www.sberbank.ru/ru> ; Полторак В. А. Маркетинговые исследования / В. А. Полторак. — Днепропетровск: ДУП, 2002. — 368 с.; Романенко, Л. Ф. Банковский маркетинг [Текст]: учебник/ Л. Ф. Романенко. — К.: ЦНЛ, 2004. — 344с.; Цифровой маркетинг Финансовый маркетинг: теория и практика / О. А. Артемьева [и др.]; под общ. Ред. С. В. Карповой. — М.: Издательство Юрайт, 2015. — 424 с.; Бакун Т.В., Обуховская И.Ф. Современные тенденции банковского маркетинга: теория и практика // Вестник Омского университета. Серия «Экономика». 2014. № 2. С. 34-40.; Руднева Н.М., Кулакова Ю.В., Лобковская О.З. Маркетинговые аспекты в банковской деятельности // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. 2014. №2. С. 40-46.; Крылов В.К. Сущность банковского маркетинга // Концепт. 2016. Т. 45. С. 33-37.; Маркова О.М. Основные направления продвижения банковских продуктов в системе банковского маркетинга в российских коммерческих банках // Интерактивная наука. 2017. № 5 (15). С. 127-131; Слесарева М. О. Диджитал-маркетинг в банковской сфере / М. О. Слесарева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 28 (266). — С. 86-87.

⁶ Gulyamov S.S. “O‘zbekiston: Jaxon molyaviy-iqtisodiy inqirozi, innovasion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobotdoshligini oshirish”. T., O‘zFA, Iqtisodiyot instituti, 2011 y.; Umarov O.S. Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari. “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” №3, 2018 y.; Ayupov R.H., Tursunov S.Q. Raqamli texnologiyalar: innovasiyalar va rivojlanish istiqbollari. Toshkent 2020 y. 377 b.; Akramov T.A. Korxonalar innovasion marketing strategiyasining konseptual asoslarini takomillash-tirish. Monografiya. – T.: Moliya, 2017 y. -141 b.; Boltabaeva G.R., Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019 y.; Abulqosimov X.P. Korxonaning xalqaro marketing faoliyati. Monografiya. – T.: Akademiya, 2002 y.- 114 b.; Jumaev N.X. Raqamli iqtisodiyot nega kerak va u nima beradi? 2020 y.– Elektron resurs: <https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyotigarovidir.>; Boltabaev M.R. M.R.Boltabaev. To‘qimachilik sanoatida marketing strategiyasi – T.: Fan, 2004 y.; Shodiev T.Sh. “Iqtisodiy matematik usullar va modellar, ekonometrika” Toshkent 2004 y.; Mustafakulov Sh.I. O‘zbekistonda investision muhit jlibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtis. fanlari doktori ilmiy daraj. olish uchun tayyorl. diss. avtor. T. BMA, 2017 y. 68 b.; Norov A.R. Tijorat banklarining tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtis. fanlari doktori ilmiy daraj. olish uchun tayyorl. diss. avtor. TDIU, T. 2022 y. 74 b.; Mirzaev F.I. Banklararo raqobat:mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.-T.: Moliya, monografiya, 2008, 276 b.; Omonov A.A, Qoraliev T.M «Pul va banklar» darslik. T.: «iqtisod-moliya», 2019 y. - 461 b.; Askarov N.I. Raqamli iqtisodiyotning ahamiyati va rivojlanish yo‘nalishlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar”. № 1, yanvar-fevral, 2021 yil; Gulyamov A.A., Raxmatova S. Shuhratjon qizi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida raqamli marketingning o‘rni. TDIU. 2022 y.; Hakimov Z.A. Yengil sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2018 y.; Sattarov O.B. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtis. fanlari doktori ilmiy daraj. olish uchun tayyorl. diss. avtor. T.: 2018.-14 b.; Bayxonov B.T. To‘qimachilik canoati korxonalarida investisiyadan foydalanish samaradorligini baholash jarayonlarini modellashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati – T. 2010 y. - 10 b.; Mahmudov U. Bank tizimida raqamli molyaviy xizmatlar: taraqqiyot va oldinda turgan vazifalar yechimi. «O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi – Экономический вестник Узбекистана» tahliliy jurnal-analiticheskij jurnal. № 3/2021 y.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertasiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalarining nazariy va uslubiy asoslarini yoritish;

banklarda marketing texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish asosida baholash;

banklar faoliyatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning xorij tajribasini tahlil qilish;

tijorat banklarida raqamli marketing strategiyasini tuzish uslubiyotini yaratish va amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning usul va vositalari, yo'nalishlarini ilmiy asoslash;

banklar faoliyatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish bosqichlari, tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning SWOT tahlilini amalga oshirish yo'llarini tadqiq etish;

tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini aniqlash usullarini ilmiy asoslash;

Del'fi usuli orqali tijorat banklarida raqamli bank marketing texnologiyalarini qo'llash samaradorligini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini oshirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini takomillashtirishda vujudga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash va prognozlashtirish, ekonometrik modellashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash, SWOT tahlili hamda Del'fi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklari tomonidan blokcheyn asosida qimmatli qog'ozlarni sotib olish (sotish) imkonini beruvchi mobil ilovadan foydalanish, ular uchun (brokerlar, dilerlar, soliqlar va komissiyalar) ketadigan xarajatlarga ehtiyoj qolmasligiga olib kelishi asoslangan;

bank mijozlariga xizmat ko'rsatishni raqamli biometrik identifikatsiya qilishni qo'llash orqali, masofadan moliyaviy xizmat ko'rsatishlar tizimi takomillashtirilgan;

banklarda mijozlarga berilgan kredit ballarini hisoblash usullariga sun'iy intellekt texnologiyasining "client-control and connection" funksiyasini kiritish orqali baholash taklif etilgan;

raqamli bank marketingning kontent texnologiyasini qo'llashda ularning onlayn platformasidan foydalanish tavsiya etilgan;

bank raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishda yirik reklama maydonlaridan voz kechib, hozirgi kunda qulay va arzon reklama maydoni "Microinfluenza" (mikro ta'sir ko'rsatuvchi marketing texnologiyasi)dan foydalanish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

raqamli bank marketingning beshta strategiyasi (SEO) qidiruv tizimini optimallashtirish, kontent-marketingni yo'lga qo'yish, raqamli reklamani yaratish, elektron pochtaga axborotlar byulletenini kiritish hamda mobil hamkorlik veb-saytlarini yaratishni qo'llash orqali uning samaradorligini oshirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

banklarda ishonchli mijozlar ma'lumotlari platformasini yaratish orqali banklarning yangi raqamli mahsulotini ijobiy va salbiy jihatlarini tahlilini o'tkazish taklif etilgan;

yirik tijorat banklarida biometrik texnologiyalarni (ovozni aniqlash, barmoq izini aniqlash, yuzni tanish, ko'zni tanib olish) qo'llash bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish taklif etilgan;

raqamli marketing texnologiyalari samaradorligining asosiy ishlash ko'rsatkichlari sifatida konversiya, trafik, o'zaro ta'sir va to'g'ridan-to'g'ri sotish ko'rsatkichlari orqali baholash maqsadga muvofiq ekanligi asoslangan;

"Mijozlar ishonchli modeli" asosida mijozlar tomonidan banklarga bo'lgan ishonchni aniqlash funksiya va formulasidan foydalanish tavsiya etilgan;

raqamli bank marketing texnologiyalari samaradorligini baholashda tijorat banklarida raqamlashtirish jarayonini amalga oshirish algoritmidan foydalangan holda zanjirsimon usulni qo'llash tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasining rasmiy manbalardan, shuningdek, raqamli bank faoliyatiga oid ma'lumotlarning hisobot manbalaridan olinganligi, xulosa va takliflarning amalda sinovdan o'tkazilganligi hamda olingan natijalarning yirik tijorat banklari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflardan raqamli bank marketing texnologiyalari samaradorligini baholashni takomillashtirish, uni xalqaro standart va talablarga muvofiqlashtirish hamda mamlakatimizda "Raqamli bank", "Bank ishi", "Xalqaro bank bozori" va "Raqamli marketing" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan rivojlantirishga hamda raqamli bank marketing texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan yirik tijorat banklarining raqamlashtirish orqali raqamli marketing

faoliyatini rivojlantirish va tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar va raqamli bank marketing texnologiyalarining strategiyalarini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan bank faoliyatiga oid fanlarning o'quv dasturlarini mazmunan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar asosida:

tijorat banklari tomonidan blokcheyn asosida qimmatli qog'ozlarni sotib olish (sotish) imkonini beruvchi mobil ilovadan foydalanish, ular uchun (brokerlar, dilerlar, soliqlar va komissiyalar) ketadigan harajatlarga ehtiyoj qolmasligiga olib kelishi taklifi ATB "O'zsanoatqurilishbank" faoliyatida qo'llanilgan (ATB "O'zsanoatqurilishbank"ning 2022-yil 7-dekabrda 07-3/8808-1-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning "O'zsanoatqurilishbank" ATB amaliyotida joriy etilishi natijasida bankning mobil ilovasi funksiyalari yanada takomillashtirilgan hamda mahalliy va xalqaro pul o'tkazmalari, to'lovlar tizimi, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, turli xil omonatlarni qulay shartlarda rasmiylashtirish, MasterCard virtual kartasini masofadan ochib onlayn to'lovlarni amalga oshirish, Visa Direct tizimi orqali dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlardagi bank o'tkazmalarni amalga oshirish, shuningdek qimmatli qog'ozlarni sotib olish (sotish) imkoniyati yaratilib, natijada, brokerlar, dilerlar, soliqlar va komissiyalar uchun ketadigan harajatlarga tejalishiga va bundan kelib chiqib bank aktivlari 2022-yilda 12,8% (55759 mlrd. so'm)ni, bank kapitali esa 11,1% (7570 mlrd.so'm)ni tashkil etgan;

bank mijozlariga xizmat ko'rsatishni raqamli biometrik identifikatsiya qilishni qo'llash orqali, masofadan moliyaviy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish taklifi ATB "Qishloqqurilishbank" faoliyatida qo'llangan (ATB "Qishloqqurilishbank"ning 2022-yil 19-oktyabrda 04/46-12-7386-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur tijorat banki tomonidan "InTend" loyihasida 2022-yil yanvar-sentyabr oylari davomida 226441 nafar mijozlar onlayn identifikatsiyadan o'tkazilib, 259,4 mlrd. so'm mikroqarz mablag'lari ajratilishiga erishildi. Shuningdek, bankning "QUANT" mobil ilovasida on-layn identifikatsiyadan o'tish orqali omonat, mikroqarz va bank kartasiga buyurtma berish funksiyalari joriy etildi. "QUANT" mobil ilovasi orqali 2022-yilning yanvar-sentyabr oylarida 14166 nafar mijozlar biometrik identifikatsiyadan o'tkazildi, hamda shu davr mobaynida jismoniy shaxslar tomonidan "QUANT" mobil ilovasi orqali 576,4 mlrd. so'm aylanmani amalga oshirilishga erishildi;

banklarda mijozlarga berilgan kredit ballarini hisoblash usullariga sun'iy intellekt texnologiyasining "client-control and connection" funksiyasini kiritish orqali baholash taklifi ATB "O'zsanoatqurilishbank" faoliyatida qo'llanilgan (ATB "O'zsanoatqurilishbank"ning 2022-yil 7-dekabrda 07-3/8808-1-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning "O'zsanoatqurilishbank" ATB amaliyotida joriy etilishi natijasida, raqamli bank vositalari SEO qidiruv tizimi, B2B platformasi, B2C platformasi, CRM mijozlar bilan ishlash tizimi takomillashtirildi. Mijozlarga beriladigan kredit ballarini hisoblashda sun'iy intellekt

texnologiyasining “client-control and connection” funksiyasidan foydalanish amaliyotga joriy etilib, natijada ijobiy kredit ballari ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan mijozlar soni oshib, bankning taasurol ko‘rsatkichlari samaradorligi (tanlab olingan alohida yangilik uchun: veb saytidan foydalanuvchilar soni (Sf) - 350, bank marketing reklamasini sayt orqali ko‘rganlar soni (SRk) – 135, taqdim etigan aloqa kanallari ulushi (SAK) – 90ga oshgan) 55,79ni tashkil qildi. Mijozlar ishonchli modeli ko‘rsatkichi 2021 yil mezon oralig‘idan kelib chiqib baholaydigan bo‘lsak 1511,80ga tengligiga erishilgan va bu ko‘rsatkich bankka nisbatan mijozlar ishonchi yuqori bo‘lganligini ko‘rsatgan;

raqamli bank marketingining kontent texnologiyasini qo‘llashda ularning onlayn platformasidan foydalanish taklifi “Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki faoliyatida qo‘llangan (“Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki 2022-yil 12-dekabrda 13-11/1747-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida, ATB “Agrobank”da bankning onlayn platformasidan foydalanish orqali raqamli bank texnologiyalarini qo‘llash samaradorligini baholash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlari keltirib o‘tildi. Natijada banking “Ommabop mahsulotlar” nomli on-layn xizmat paketi “Agrobank”ning taasurol ko‘rsatkichlari samaradorligini 60,74% ulushga oshishiga erishilgan;

bank raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishda yirik reklama maydonlaridan voz kechib, hozirgi kunda qulay va arzon reklama maydoni “Microinfluenza” (mikro ta’sir ko‘rsatuvchi marketing texnologiyasi)dan foydalanish bo‘yicha taklif ATB “Qishloqqurilishbank” faoliyatida qo‘llangan (ATB “Qishloqqurilishbank”ning 2022-yil 19-oktyabrda 04/46-12-7386-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, har bir video reklamalardan so‘ng 500 000 dan ortiq obunachilar kuzatib borishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 20 ta respublika va 25 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 29 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta ilmiy monografiya, Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 14 ta maqola (11 ta mahalliy va 3 ta xorijiy nashrlarda) va boshqa nashrlarda 14 ta ilmiy tezislar chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiya hajmi 292 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, ob‘ekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertasiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertasiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalari: mohiyati va ahamiyati, banklarda marketing texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda banklar faoliyatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning xorijiy tajribalari ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan.

XX - asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, iqtisodiyotning barcha sohalarida bo‘lgani kabi marketing sohasiga ham yangi tushuncha “raqamli marketing”ni kirib kelishga sabab bo‘ldi. Raqamli marketing mohiyatini ochib berish bo‘yicha ko‘plab olimlar o‘z nazariy qarashlarini bayon etganlar. Jumladan, “raqamli marketing potensial mijozlarni jalb qilish va ularni iste‘molchi sifatida saqlab qolish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanadigan tovarlar va xizmatlarning maqsadli hamda interaktiv marketingidir” deb ta‘rif berilgan. Raqobatchilar orasida ajralib turish va iste‘molchi oldida ma‘lum afzalliklarni shakllantirish uchun 70-yillarda bank tashkilotlari birinchilardan bo‘lib marketingni rivojlantirdilar”⁷.

Mijozlarning xohish-istaklari, turli mahsulotlarga bo‘lgan talab tendensiyalari va yangi mahsulotlarga bo‘lgan munosabati haqida ma‘lumot olish imkonini beradi. Bank sektorining raqamli marketingidagi asosiy tendensiyasi bu nafaqat moliyaviy institutga aylanib borayotgan bankni yaratishdir, balki bankning mijozlar pul sarflaydigan joyda bo‘lish istagi turli brendlar (asosan chakana savdo) bilan hamkorligida namoyon bo‘ladi.

Insonlar hayotining turli sohalaridagi xizmatlarini umumiy brend ostida birlashtirish – bu barcha tijorat banklarining kelajagidir. Shuning uchun banklar muvaffaqiyatga erishmoqchi bo‘lsalar, mijozni birinchi o‘ringa qo‘yishlari kerak. Raqamli kanallar har bir mijozning marketing hisobotlariga bo‘lgan aloqasini qayta belgilab qo‘ydi va endi hamma narsani kuzatish hamda har bir harakatni miqdoriy jihatdan baholash mumkin.


Olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli marketing faoliyatini yo‘lga qo‘ygan kompaniyalarda o‘tkazilgan so‘rovnomalarda (so‘rovnomada 5000 dan ortiq xodim va mijozlar ishtirok etgan) korxonalarining 50 foizi marketing xarajatlari kamayganini, 38 %i bandlik holati o‘zgarganini va 47 %i uyda ishlashni yoqtirishini ma‘lum qilgan⁸. Boshqa sohalarda raqamli texnologiyalarning keng targ‘ib qilinishi banklar faoliyati bilan ham chambarchas bog‘liq.

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish biznes strategiyalarida o‘zgarishlarga olib keldi, yangi marketing imkoniyatlarini ochib berdi, bu esa mijozlar bilan ishlashda yangi yondashuvlarga va yangi foyda manbalarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Bank sohasidagi raqamli marketing kontent marketingi, ijtimoiy media marketingi

⁷ Цифровой маркетинг Финансовый маркетинг: теория и практика / О. А. Артемьева [и др.]; под общ. Ред. С. В. Карповой. — М.: Издательство Юрайт, 2015. — 424 с.

⁸ <https://digitalmarketinginstitute.com/resources/ebooks/dmi-member-survey-covid-19> White paper: Digital technologies pave the way in response to Covid-19. Electronic booksDigital strategy. Caroline Hollick-Ward. Posted on Jun 23, 2020


(SMM), qidiruv tizimini optimallashtirish (SEO), trafikni boshqarish, elektron pochta marketingi, kontekstli reklama kabi barcha zamonaviy vositalardan foydalanadi. Quyidagi rasmda bank sohasidagi raqamli (on-line) va an'anaviy (off-line) marketingning o'ziga xos xususiyatlarining taqqoslama tahlilini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Bank sohasidagi raqamli (on-line) va an'anaviy (off-line) marketingning o'ziga xos xususiyatlari⁹


Tijorat banklarida mijozlar bazasini yosh avlod bilan to'ldirib borish uchun bank muassasalari ko'proq raqamli bo'lishi kerak va bunda raqamlashtirishning eng muhim yo'nalishlariga rioya qilish eng yaxshi usul hisoblanadi. Ushbu yo'nalishlar tarmog'i doimiy ravishda texnologiyalar o'zgarishi natijasida kengayib bormoqda yoki aksincha eski modellardan voz kechgan holda yangi zamonaviy yo'nalishlar kiritilmoqda.

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. Butun dunyo bo‘ylab reklama harajatlari, 2019-2024-yillarga nisbatan (mlrd. AQSh dollari, %) ¹⁰

Olib borilgan ko‘plab tahlil va tadqiqotlarda raqamli marketing faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan foydalanish darajalari bo‘yicha turli axborot agentliklari tomonidan ma’lumotlar taqdim etilmoqda.



3-rasm. Raqamli bankni tanlashda mijozlar tomonidan e’tibor qaratiladigan asosiy omillar ¹¹

Kompaniyalarning eng muhim ko‘rsatkichlarini oshirish bu reklamalarga ajratilayotgan mablag‘larga borib taqaladi. eMarketer ma’lumotiga ko‘ra jahonda avvalgi yillarga nisbatan 2021 yilda reklamalarga sarflangan mablag‘lar 17 %ga ortib, 389,29 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. 2-rasmda keltirilganidek, keyingi yillarda reklamaga qilinayotgan xarajatlarning o‘sish tendensiyasini saqlab qolgan. Raqamlashtirish jarayonida mijozlarni jalb etishning eng qulay usullaridan biri bu

¹⁰ www. eMarketer.com

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

raqamli reklama bo'lib qoldi. Buni 3-rasmda berilgan raqamli bankni tanlashda mijozlar tomonidan e'tibor qaratiladigan asosiy omillar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Banklarda raqamli marketing faoliyatini samarali yo'lga qo'yishda mukammal strategiyani tanlash talab etiladi. Agar ushbu faoliyatni tashkil etishda qandaydir vositalar yetarli bo'lmasa, unda belgilangan natijaga erisha olmaydi. Raqamli marketingda samaradorlik ko'lami tez o'sib bormoqda. Bank sohasida raqamli marketingdan foydalanishni ikki xil usulda, raqamli marketingni joriy etish yoki raqamli marketing agentliklarini jalb etish orqali tashkil etish mumkin.


Dissertasiyaning ikkinchi bobi **“Tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalarining usul va vositalarini qo'llash asoslari”** deb nomlanib, bunda banklar faoliyatida raqamli marketing texnologiyalarini amaliyotga joriy etish metodlari va strategiyasining nazariy asoslari, tijorat banklarida raqamli marketing strategiyalarini tuzish uslubiyoti hamda tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning usul va vositalari ilmiy amaliy tomondan tahlil qilingan.

Olib borilgan ko'plab tadqiqotlarda bank marketing strategiyasiga nazariy qarashlar turlicha yondashuvlar asosida rivojlanib borgan. Jumladan, ayrim olimlar “bank marketingi strategiyasi yuksak miqdoriy, sifat va ijtimoiy ko'rsatkichlarga, bank tarafidan amalga oshirilayotgan amaliyot va xizmatlar hajmiga, daromadlar va xarajatlar ko'rsatkichlariga, mablag'lar aylanmasi tezligiga, amaliyotlarni bajarishda xarajatlarning past bo'lishiga, hujjatlarni qayta ishlash muddatlariga, ko'rsatilayotgan xizmatlarning hajmi, tuzilmasi va sifati bo'yicha mijozlarning talablarini yuksak darajada qondirishga, maxfiy axborot sir saqlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak”, deb hisoblaydilar¹².

Shu sohada tadqiqot olib borgan xorijlik olimlar bank marketing strategiyasini yaratishda uni ma'lum darajalarga bo'lgan holda ishlab chiqish muhim, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, bozor iqtisodiyotida bank marketing strategiyasini bir nechta darajalar orqali ishlab chiqish qabul qilingan. Birinchisi, o'z ichiga tovar, narx, bozor, foyda kabi toifalarni oladi. Ikkinchi darajasi tarkibiga axborot tizimi, raqamlashtirish, marketingni rejalashtirish va tashkil etish, marketing tizimidagi nazorat kiradi. Uchinchi darajasi esa yetkazib beruvchilar, raqobatchilar, mijozlar, aloqa auditoriyalari (turli moliyaviy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, davlat organlari, jamoatchilik, bank xodimlari)dan iboratdir¹³. Ushbu elementlarning barchasi birgalikda, o'zaro bog'liqlikda va o'zaro shartlilikda marketingning kompleks strategik tizimini ifodalaydi (4-rasm). Ushbu nazariy qarash ma'lum ma'noda marketing faoliyatini keng qamrovli tushuncha sifatida qarash zarurligini belgilab beradi.

¹² Daniel E., Wilson H., McDonald M. and Ward J. (2001) Marketing Strategy in the Digital Age, Financial Times/Prentice Hall, Harlow.

¹³ Berthon P., Lane N., Pitt L. and Watson R. (1998) The World Wide Web as an industrial marketing communications tool: models for the identification and assessment of opportunities, Journal of Marketing Management, 14, 691–704.



4-rasm. Bank strategiyasining tarkibiy qismlari¹⁴

Bizga ma'lumki, mijozlar bilan muomalaga kirishish doirasida bank marketingi faol va passiv qismlarga bo'linadi. *Faol marketing* tarkibiga to'g'ridan-to'g'ri marketing kiradi, ya'ni: pochta, telefon va televideniya yordamida foydalanadigan faol reklama; aholini keng tabaqalaridan, jumladan, ko'chalarda so'rov olish; ehtimolli mijoz bilan shaxsiy uchrashuv, uning ehtiyojlarini o'rganish kiradi. *Passiv marketing* – bank faoliyati va ahvoli, taklif etilayotgan xizmatlardan olinadigan foyda to'g'risida materiallar chop etishdir. Bozorda mustahkam joylashib olish istagida bo'lgan bank bu usullarning har ikkalasidan ham faol foydalanishi lozim bo'ladi (5-rasm).


Keyingi o'n yillikda bank sohasida raqamlashtirish jarayonini kirib kelishi natijasida bank marketing texnologiyalari ham o'zgarib bordi. Bugungi kunda bank marketing strategiyasi tushunchasi – raqamli bank marketing strategiyasi tushunchasi bilan almashdi. Bunda asosiy e'tibor raqamli mahsulotlarga bo'lgan talabni zudlik bilan o'rganish va uni (biometrik texnologiyalarni (ovozni aniqlash, barmoq izini aniqlash, yuzni tanish, ko'zni tanib olish va b.) bank mijozlariga taqdim etish bo'yicha turli yondashuvdagi strategiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Raqamli bank strategiyasini tuzishning asosiy masalasi bu banklarning yangi bank xizmatlarini masofaviy, qulay va kam harajatligiga e'tibor berishi zarurligini belgilab beradi.

Raqamlashtirish jarayonini respublikamiz bank sohasiga qo'llash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli 2020 - 2025-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonida, bank sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish maqsadida quyidagilar keltirilgan: masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish; avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish; bank ma'lumotlari va tizimlarining axborot


¹⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

xavfsizligini kuchaytirish; bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni (fintex, marketpleys, raqamli bank) joriy qilish.



5-rasm. Raqamli bank marketing strategiyasining asosiy turlari¹⁵

Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni ayniqsa oxirgi ikki yilda keskin ortganini ko‘rish mumkin (6-rasm). Buni ikkita holat bilan, birinchidan, tijorat banklarida raqamlashtirish orqali bank mahsulotlari hajmining ortishi, ikkinchidan, pandemiya sharoitida raqamli bank mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortgani bilan izohlash mumkin.




6-rasm. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni¹⁶

¹⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi tijorat banklaridagi raqamli bank xizmatlari hali yetarlicha emas. Chunki bank mahsulotlaridan foydalanuvchilar soni yildan-yilga ortib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu xizmatlar turlarini yanada oshirish zarur bo'ladi. Buning uchun respublikamiz banklarida raqamli bank marketing strategiyasini mukammal ishlab chiqish va xorijiy banklar amaliyotida keng foydalanib kelayotgan raqamlashtirish strategiyalari tajribasidan foydalanish bo'yicha aniq echimlarga ega bo'lish muhim hisoblanadi. Demak, har qanday raqamli bank strategiyasini tuzish jarayonida uning kelajakdagi qiymatliligiga, ya'ni daromadning kelish manbasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ammo masalaning ikkinchi tomoni, mijozlarning yangi raqamli bank mahsulotlariga bo'lgan talabining ortib borishi, banklarning bu jarayonga tezroq kirib borishini taqozo etadi. Raqamli bank marketing strategiyasining tarkibiy jihatdan mukammal bo'lishida unga ta'sir qiluvchi barcha ichki va tashqi omillarni e'tiborga olish muhim.

Dissertasiyaning uchinchi bobi **“Tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning SWOT tahlili va mavjud muammolar”** deb nomlanib, ushbu bobda banklar faoliyatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish bosqichlari, tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning SWOT tahlilini amalga oshirish uslubiyoti va tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalari samaradorligi: hisoblash usullari va mavjud muammolar ilmiy amaliy tomondan o'rganilgan.



7-rasm. Bank faoliyatida raqamli marketing texnologiyalarini qo'llashning asosiy yo'nalishlari¹⁷

Banklar o'z faoliyatidan kelib chiqqan holda bozorga xizmat ko'rsatish jarayonlarini tubdan o'zgartirish maqsadida yangi bozorga tez moslanuvchan

¹⁶ <https://cbu.uz/oz/statistics/buletin/592793/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

¹⁷ <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202015904033> (Oleg Litvishko^{1*}, Kamar Beketova, Bibigul Akimova, Assem Azhmukhamedova, Gulnara Islyam impact of the digital economy on the banking sector.

raqamli marketing texnologiyalarini ishlab chiqish zarurligini anglab yetmoqdalar. Bu esa banklarning raqamli marketing ish faoliyatini tashkil etishda elektron va mobil ilovalar hamda, masofaviy xizmatlarga ko‘proq e‘tibor qaratish zarurligini taqozo etadi (7-rasm). Boshqacha aytganda, banklarda marketing faoliyatini raqamlashtirilishi nafaqat banklar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi, balki ularni raqobatni kuchaytirish, mijozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, arzon va sifatli moliyaviy hamda to‘lov xizmatlarini ko‘rsatish orqali mijozlarni jalb qilishning yangi usullarini izlashga undaydi. Banklarda raqamli marketing texnologiyalarini qo‘llashda banklar transformasiyasini amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda bank tizimini transformasiya qilish va xususiylashtirish davrida hosil bo‘ladigan iqtisodiy bo‘shliqlarni to‘ldirish, barcha aholi qatlamlarining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish, bank xizmatlarining hududiy qamrovini ta‘minlash va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirish maqsadida davlat ishtiroki 3 ta bankda – “Milliybank”, “Agrobank” va “Mikrokreditbank”da saqlab qolinishi belgilangan. “O‘zsanoatqurilishbank”, “Asakabank”, “Ipotekabank”, “Aloqabank”, “Turonbank” hamda “Qishloqqurilishbank” xususiylashtirishga tayyorlanmoqda. Kamida bitta yirik bankdagi davlat ulushi strategik investorlarga to‘liq sotilishi ko‘zda tutilgan¹⁸.

Karantin cheklovlari sharoitida foydalanuvchilarga imkon yaratish uchun bank kartalarini banklarning mobil ilovalari (saytlari) orqali yuborilgan onlayn buyurtmalar asosida chiqarish mexanizmi joriy etildi. Bank platformasiga raqamli marketing texnologiyalarini joriy etilishi ishchi kuchi va xodimlarni boshqarish tizimiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi va shu orqali avtomatlashtirish jarayoni orqali mehnat resurslarini kamaytiradi (8-rasm).

Amalga oshirilgan tahlillar asosida respublikamiz banklarida raqamli marketing texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalarini amalga oshirishda “bank-mijoz-mahsulot” strategiyasini ishlab chiqish;


raqamli marketing texnologiyalarini banklarda qo‘llashda “doimiy mijoz-yangi mijoz-kuzatuvchi mijoz” bazasini yaratish;

raqamli marketing texnologiyalari asosida bank mahsulotlarini bozorga taklif qilishda mahsulotlarning yashash sikliga alohida e‘tibor qaratish zarur;

raqamli marketing texnologiyalarini qo‘llashda targetli (ingliz til. “target”- “maqsad”) mijozlarga asosiy e‘tibor qaratish zarur;

ranklar raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishda yirik reklama maydonlaridan voz kechib, hozirgi kunda qulay va arzon reklama maydoni “Microinfluyenza” (mikro ta‘sir ko‘rsatuvchi marketing texnologiyasi)dan foydalanish tavsiya etiladi.

¹⁸ <https://lex.uz/docs/4811025>



8-rasm. Tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalarini sohalarda rivojlantirish bosqichlari¹⁹

Tijorat banklarida yangi zamonaviy bank xizmatlarini joriy etish asosida ularning imidjiga turlicha omillar ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun bank faoliyatiga kirib kelayotgan raqamli marketing texnologiyalarini SWOT tahlilini amalga oshirish muhim hisoblanadi.



9-rasm. O'zmilliybank strategiyasini ishlab chiqishning asosiy elementlari²⁰

¹⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

²⁰https://nbu.uz/upload/iblock/a83/Biznes_reja-va-rivojlanish-strategiyasi.pdf#viewer.action=download

Respublikamizning eng yirik banklaridan biri O‘zmilliybank faoliyatini SWOT tahlilini aynan raqamli bank marketing texnologiyalarini qo‘llash ijrosi bo‘yicha ko‘rib chiqamiz. O‘zmilliybank faoliyatining rivojlanishida 2022-2023 yillardagi strategiyasini belgilashda bankning tashqi va ichki o‘zgarishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Tashqi transformasiya mijozlar, hamkorlar va pudratchilar bilan ishlashning yangi konsepsiyasini joriy etish bilan bog‘liq. Bankning ichki o‘zgarishi tashkiliy tuzilma, biznes modeli, IT platformasi, menejerlar va xodimlarning fikrlashidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda tuzilgan (9-rasm).

Bank rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari valyuta kurslari dinamikasini hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-yilga va 2021-2022-yillarga mo‘ljallangan pul-kredit siyosatining asosiy yo‘nalishlari asosida hisoblanadi. Inflyasiya (2020-yil -13%, 2021-10%, 2023-yil 5%), YaIM o‘shish sur‘ati (2020-yil 5,5%, 2021-5,8%, 2022-yil 6,2 foiz), 2020 yilda kreditlashning o‘shish sur‘ati – 20-25 foiz darajasida (valyuta kursidagi o‘zgarishlardan tashqari) va 2020-yilda IT infratuzilmasi va aloqa kanallarini yangilashni hisobga olgan holda tuzib chiqilgan. Strategik jarayonlarini baholaydigan bo‘lsak, bankning keyingi yillar uchun o‘shish prognozini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Ayniqsa bankning sof foyda ko‘rsatkichining 2023-yilga borib 129% ga ortishi bu ijobiy hisoblanadi. Xuddi shunday bankning rentabellik darajasi 2023-yil strategiyasiga ko‘ra 14,5% ga yetishi belgilangan (1-jadval).

1-jadval

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki” AKning 2020-2023 yillarga mo‘ljallangan strategiyasining asosiy ko‘rsatkichlari²¹

Ko‘rsatkichlar	Amalda			Strategiya-2023		
	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024
Aktivlar, mlrd.so‘m	56525	66605	86608	108370	129143	145813
Majburiyat, mlrd. so‘m	50803	53464	72167	92239	110819	124629
Kapital, mlrd. so‘m	5722	13141	14441	16131	18328	21184
Kredit portfeli, mlrd. so‘m	46574	54989	71523	88807	104991	118659
Sof foyda, mlrd. so‘m	507	1044	1300	1690	2197	2856
ROA	1.0%	1.8%	1.7%	1.7%	1.8%	2.1%
ROE	9.6%	11.6%	9.4%	11.1%	12.8%	14.5%
CIR	46%	36.0%	35.0%	35.0%	35.0%	35.0%

Bankning kuchli tomonlari: o‘z sohasidagi yetakchi tashkilotlardan biri sifatida O‘zmilliybank banklar bozorida muvaffaqiyat qozonish imkonini beruvchi ko‘plab kuchli tomonlarga ega. Ushbu kuchli tomonlar nafaqat mavjud bozorlarda bozor ulushini ta‘minlashga yordam beradi, balki yangi bozorlarga kirishda ham

²¹ https://nbu.uz/upload/iblock/a83/Biznes_reja-va-rivojlanish-strategiyasi.pdf#viewer.action=download

yordam beradi. Tahlillarga tayangan holda bankning ba'zi kuchli tomonlarini sanab o'tamiz: Birinchidan bank faoliyatini avtomatlashtirish jarayonini kengaytirish orqali mahsulotlariga sifat barqarorligini olib kirishga erishdi. Bank bozor talablariga mos bo'lgan mahsulotlarini oshirish hisobiga raqobatdosh usutunligini va strategik yo'nalishlarni to'g'ri belgilab oldi. Muvaffaqiyatli ta'lim va o'qitish dasturlari orqali yuqori malakali xodimlarini o'qitish va rivojlantirishga katta mablag' sarflaydi, natijada ishchi kuchi nafaqat yuqori malakali, balki ko'proq yutuqlarga erishishga undaydi. Mahsulotlari uchun juda muvaffaqiyatli Go To Market strategiyalarini kiritishga erishmoqda. Yangi bozorlarda ajoyib ko'rsatkichlar - bankni yangi bozorlarga kirish va muvaffaqiyatga erishish tajribasini yanada oshirmoqda. Turli bozorlardagi ulushini ortib borishi natijasida bankning yangi daromad oqimini yaratishga va u faoliyat yuritayotgan bozorlarda biznes sikli xavfini diversifikatsiya qilishga yordam berdi.

Zaif tomonlar ichki strategik omillar ta'siri asosida bu - O'zmilliybankni yaxshilash mumkin bo'lgan sohalarni o'z ichiga olib quyidagilarni yanada rivojlantirish asosida yo'qotish mumkin. O'zmilliybank tomonidan taklif etilayotgan mahsulotlar assortimentida kamchiliklar mavjud bo'lib asosan ichki imkoniyatlarni qondirish maqsadida takliflar ishlab chiqilgan. Bank o'z mahsulotini ichki bozordan tashqari taklif etmasa yangi raqobatchiga bozorda o'z o'rnini berishi mumkin. Bankka yangi texnologiyalarga yanada ko'proq sarmoya kiritish talab etiladi. Kengayish ko'lamini va bank kengayishni rejalashtirayotgan turli geografialarni hisobga olgan holda, jarayonlarni butun kengash bo'ylab integratsiya qilish uchun texnologiyaga ko'proq pul sarflashi kerak. Hozirgi kunda foydalanilayotgan texnologiyalar ko'lami va investitsiyalar bankning qarashlariga mos kelmaydi. Mahsulot marketingi olib borishda yangi raqamli bank marketing texnologiyalaridan foydalanish sust darajada. Bankning bozorda mahsulot sotishi muvaffaqiyatli bo'lsada, uning joylashuvi va noyob sotish taklifi aniq belgilanmagan, natijada esa ushbu segmentdagi kuchli raqobatga duch kelishi mumkin. Boshqa banklar bilan taqqoslaganda, bank o'z xodimlarini o'qitish va rivojlantirish uchun raqobatchilardan ko'ra ko'proq mablag' sarflashi zarur bo'ladi. Tashkiliy tuzilma faqat mavjud biznes modeliga mos keladi, bu esa tegishli mahsulot segmentlariga kengaytirishni cheklaydi. Bank mahsulotlariga bo'lgan talabni raqamli marketing orqali tahlil qilish va uning yashash davrini siklik jarayoni to'g'ri prognoz qilishni talab etadi. Aks holda raqobatchilarga nisbatan o'tkazib yuborilgan imkoniyatlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin..

O'zmilliybank imkoniyatlari - tashqi strategik omillar asosida rivojlantirish. Yangi texnologiya bankga yangi bozorda tabaqalashtirilgan narx strategiyasini qo'llash imkonini beradi. Bu bankka o'zining sodiq mijozlarini mukammal xizmat ko'rsatish bilan qo'llab-quvvatlash va boshqa qimmatli takliflar bilan yangi mijozlarni jalb qilish imkonini beradi. Yangi ekologik siyosat - yangi imkoniyatlar sanoatning barcha ishtirokchilari uchun teng sharoit yaratadi. Bu bank uchun yangi texnologiyalarda o'z ustunligini amalga oshirish va yangi mahsulotlar toifasida bozor ulushini qo'lga kiritish uchun ajoyib imkoniyatdir. Iste'molchilarning xatti-harakatlaridagi yangi tendensiyalar bank uchun yangi bozorni ochishi mumkin. Bu bankka yangi daromad oqimlarini yaratish va yangi mahsulot toifalariga

diversifikatsiya qilish uchun ajoyib imkoniyat beradi. Past inflyatsiya - bozorda katta barqarorlikni ta'minlaydi, bu bank mijozlariga past foiz stavkasida kredit olish imkonini beradi. Barqaror erkin pul oqimi tegishli mahsulot segmentlariga investitsiya qilish imkoniyatini beradi. Bankdagi ko'proq naqd pul bilan kompaniya yangi texnologiyalarga ham, yangi mahsulot segmentlariga ham sarmoya kiritishi mumkin. Bu bank uchun boshqa mahsulot toifalarida imkoniyatlar oynasini ochishiga imkoniyat beradi. Hukumat kelishuvi tufayli yangi bozorlarni ochish - yangi texnologik standartni va davlat erkin savdo shartnomasini qabul qilish bankga yangi rivojlanayotgan bozorga kirish imkoniyatini beradi.

O'zmilliybankning tahdidlari - tashqi strategik omillar asosida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar. Yuqori qiymatli mahsulotlarga bo'lgan talab mavsumiydir va eng yuqori mavsumdagi har qanday kutilmagan hodisa bankning qisqa va o'rta muddatli istiqboldagi rentabelligiga ta'sir qilishi mumkin. Mas'uliyat to'g'risidagi qonunlar turli mamlakatlarda farq qiladi va bank ushbu bozorlardagi siyosat o'zgarishlari tufayli turli xil javobgarlik talablarini qo'yishi mumkin. Mahalliy distribyutorlarning kuchayib borayotgan kuchi ba'zi bozorlarda ham xavf tug'diradi, chunki raqobat mahalliy distribyutorlarga yuqori marja to'laydi.

2-jadval

Raqamli bank marketingini SWOT tahlilini o'tkazishda eng muhim yo'nalishlar²²

Qulayligi	Ustunligi
<ul style="list-style-type: none"> -bozorni to'liq o'rganish imkonini beradi; -bank bozorga yangi xizmat turlarini taqdim etadi; -mijozlar sonini ortishiga olib keladi hamda qulayliklar yaratiladi; -banklar doimiy ravishda 24/7 tizimda ish faoliyatini olib boradi; -bank daromadini oshishiga erishiladi; -masofadan xizmat ko'rsatish turlari ko'payadi 	<ul style="list-style-type: none"> -bank raqobatbardoshligi oshadi; -tez va sifatli xizmat ko'rsatiladi; -mijozlar bilan doimiy muloqat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi; -jahon bank bozoriga chiqish imkoniyatlari oshadi; -IT sohasida yangi dasturiy mahsulotlarga ega bo'ladi
Kamchiligi	Muammolar
<ul style="list-style-type: none"> -ma'lum bir dasturiy ta'minotga bog'lanib qolishi; -kiberxavfsizlik dasturiy ta'minot yuqori bo'lishi; -yuqori shakldagi infrastrukturani talab etilishi; -yuqori toifali mutaxassislarga tayanishi 	<ul style="list-style-type: none"> -joylarda to'liq internetdan foydalanish imkoniyatini yo'qligi; -aholini raqamli bank mahsulotlaridan foydalanish tajribasini kamligi; -mijoz va bank o'rtasida aloqalarni doimiy emasligi; -raqamli bank marketingi bo'yicha mutaxassislarni yetishmasligi; -joylarda bank filiallarida raqamli bank xizmatlarini olib borish imkoniyatlarini cheklanganligi

²² Muallif tomonidan tuzilgan.

O‘zmilliybank uchun SWOT tahlilining cheklovlari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin. SWOT tahlili strategik rejalashtirish vositasi sifatida keng qo‘llanilsa-da, tahlilning o‘ziga xos cheklovlari bor. Bankning ba’zi takliflari yoki omillari bir vaqtning o‘zida kuchli va zaif bo‘lishi mumkin. Bu SWOT tahlilining asosiy cheklovlaridan biridir. Misol uchun, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini o‘zgartirish bank uchun tahdid va imkoniyat bo‘lishi mumkin, agar u raqobatchilarga qaraganda tezroq mahsulot ishlab chiqara olsa, raqobatchilarga nisbatan teng yoki ustunlikka ega bo‘lish imkonini beradi. SWOT raqobatdosh ustunlikka qanday erishish mumkinligini ko‘rsatmaydi, shuning uchun u o‘z-o‘zidan maqsad bo‘lmasligi kerak.

Tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning SWOT tahlilini o‘tkazishda eng muhim ustuvor yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni taklif etamiz (2-jadval).

Matritsa taklif qilingan strategiyalarni qanday amalga oshirish mumkinligini muhokama qilish uchun faqat boshlang‘ich nuqtadir. Bu bankning strategik raqobatbardoshligiga asoslangan amalga oshirish rejasi emas, balki baholash oynasini taqdim etdi. SWOT - bu statik baholash - kichik o‘zgarishlar bilan vaziyatni tahlil qilish. Vaziyatlar, imkoniyatlar, tahdidlar va strategiyalar o‘zgarganligi sababli, raqobat muhitining dinamikasini bitta matritsada mukammal ushlab bo‘lmaydi. Tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning SWOT tahlilini amalga oshirishda, bankda qisqa va uzoq muddatli strategiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadga muvofiq. SWOT tahlilini o‘tkazishda asosiy e‘tiborini iqtisodiy ko‘rsatkichlarining bank faoliyatini rivojlantirishdagi o‘rnini baholashga, yangi raqamli bank texnologiyalarini qo‘llash orqali uning bozordagi kuchli va kuchsiz tomonlarini tahliliga, xizmat, servis va yangi bank mahsulotlarini joriy etishda raqamli bank marketingini roliga e‘tibor qaratishi zarur.

Dissertasiyaning **“Raqamli marketing texnologiyalarining tijorat banklari rivojlanishiga ta’sirini baholash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida Del’fi usuli orqali tijorat banklarida raqamli bank marketing texnologiyalarini qo‘llashni baholash tahlili, tijorat banklari raqamli bank texnologiyalari samaradorligini baholash tahlili, tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalari asosida yangi bank mahsulotlarini joriy etishda xarajatlar holatini tahlili hamda tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini amalga oshirish tahlili o‘tkazilgan.

Del’fi metodi asosida o‘tkazilgan so‘rovnomada respublikamizda faoliyat olib borayotgan 4 ta yirik banklarning xodimlari ishtiroki orqali amalga oshirildi. Ushbu so‘rovnomalarda berilgan savollar mazmunidan kelib chiqib banklarning turli departamentlaridan xodimlar ishtirok etdi. Bank xodimlari bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijasiga ko‘ra banklar faoliyatida raqamli bank vositalarini hamda raqamli marketing texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

Raqamli bank tushunchasiga egamisiz? savoliga berilgan javoblar (to‘liq bilaman; qisman bilaman) soni ishtirok etgan respondentlarning Milliybankda 70,6%, Asaka bankda 74,7%, O‘zsanoatqurilishbankda 74,9% va Agrobankda 75%ni tashkil qilmoqda. Qolgan ikkita javoblar (eshitmaganman; umuman

tasavvurga ega emasman) soni Milliybankda 26,4%, Asaka bankda 25,3%, O'zsanoatqurilishbankda 26,1% va Agrobankda 25 %ni tashkil qilishi kuzatildi (3-jadval).

3-jadval

Raqamli bank tushunchasiga egamisiz? Savolnomasiga ishtirok etgan respondentlarning natijalari²³

Savolnoma variantlari	Milliy bankdan ishtirok etgan respondentlar soni (510)		Asaka bank ishtirok etgan respondentlar soni (335)		O'zsanoatqurilish bank ishtirok etgan respondentlar soni (410)		Agrobank ishtirok etgan respondentlar soni (540)	
	soni	ulushi	soni	ulushi	soni	ulushi	soni	ulushi
To'liq bilaman	160	31,4	90	26,9	103	25,1	110	20,4
Qisman bilaman	200	39,2	160	47,8	200	48,8	295	54,6
Eshitmaganman	75	14,7	35	10,4	73	17,8	68	12,6
Umuman tasavvurga ega emasman	75	14,7	50	14,9	34	8,3	67	12,4
JAMI	510	100	335	100	410	100	540	100

Raqamli bank vositalaridan bankingiz foydalanadimi? savoliga berilgan javoblarni tahlil qiladigan bo'lsak, "Ha foydalanadi" javobini Milliybank respondentlarning 38,2%i, Asaka bank respondentlaring-31,9%i, O'zsanoatqurilishbank respondentlaring - 32,7%i va Agrobank respondentlaring - 29,1%i bergan. Tahlil qilingan banklar ichida bu ko'rsatkich bo'yicha 540 ta respondent bilan ishtirok etgan. Agrobank -29,1% bilan eng past ko'rsatkichni tashkil etgan (4-jadval).

4-jadval

Raqamli bank vositalaridan bankingiz foydalanadimi? Savolnomasiga ishtirok etgan respondentlarning natijalari²⁴

Savolnoma variantlari	Milliy bankdan ishtirok etgan respondentlar soni (510)		Asaka bank ishtirok etgan respondentlar soni (335)		O'zsanoatqurilish bank ishtirok etgan respondentlar soni (410)		Agrobank ishtirok etgan respondentlar soni (540)	
	soni	ulushi	soni	ulushi	soni	ulushi	soni	ulushi
Ha foydalanadi	195	38,2	107	31,9	134	32,7	157	29,1
Qisman foydalanadi	232	45,5	134	40,0	187	45,6	254	47,0
Ma'lumotga ega emasman	43	8,4	56	16,7	50	12,2	67	12,4
Foydalanmaydi	40	7,8	38	11,3	39	9,5	62	11,5
JAMI	510	100	335	100	410	100	540	100

²³ Muallif tomonidan tuzilgan.

²⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

Demak, tahlil qilingan banklar ichidan Milliybankda raqamli bank vositalaridan foydalanish darajasi boshqa banklarga nisbatan yuqori ekanligi ko'rinadi. Ushbu so'rovnoma natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, Agrobankda deyarli so'rovnoma ishtirok etganlarning yarmi raqamli marketing vositalari bo'yicha ma'lumotga ega emasligi hamda uning vositalaridan foydalanmasligi bu salbiy holat hisoblanadi. Demak, respublikamiz yirik banklarida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish darajasi ijobiy holatda deb baholab bo'lmazligi aniqlandi.

Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatish siz uchun qulaymi? ushbu so'rovnoma variantlarini ya'ni, "Ha qulay" va "Qisman qulay"larni ijobiy deb baholasak, ishtirok etganlarning juda katta ulushi shu variantlarga javob berganlar. Jumladan, Milliybankda – 380 nafar, Asaka bankda – 239 nafar, O'zsanoatqurilishbankda – 320 nafar va Agrobankda – 397 nafar respondentlar ovoz berishgan. Ammo shuning bilan birga "Menga ahamiyati yo'q" va "Noqulaylik tug'diradi" variantlarida ovoz berganlar ham bo'lib bu salbiy holat hisoblanadi. Umuman olganda ushbu savolnomaga berilgan javoblarni ijobiy deb baholasak bo'ladi. Demak, banklarimizda masofadan xizmat ko'rsatish qulay variant ekanligini ko'pchilik respondentlar ham ta'kidlab o'tishgani asoslandi.

Raqamli bank xizmatiga o'tish zarur deb hisoblaysizmi? Savoli bo'yicha "Ha zarur" variantini barcha banklarda ijobiy holat deb baholash mumkin. Bu javob, Milliybank – 69%, Asaka bank – 53,7%, O'zsanoatqurilishbank – 52,2% va Agrobank – 53%ni tashkil etgan. Ikkinchi variant "Qisman o'tishga tayyor" javobi Milliybankda – 24,%, Asaka bankda – 29,3 %, O'zsanoatqurilishbankda – 30,% va Agrobankda – 30,6%ni tashkil etgan. Bu variant bo'yicha ovoz berganlar ham yuqori natijani ko'rsatmoqda. Demak, bu holat ayrim banklarimizda raqamli bank xizmatiga o'tish bo'yicha muammolar borligini ko'rsatadi. Uchinchi javob "Etarli texnologiyaga ega emas" varianti bo'yicha natijalar ulushi kichik bo'lsada, ammo ma'lum ma'noda bu bo'yicha ham ishlarni yetarlicha tashkil etish zarur bo'ladi. Banklarda yana shunday holat kuzatildiki, to'rtinchi javob varianti "O'tishga zarurat yo'q" deb ovoz beruvchilar ham borligi bank faoliyatiga zamonaviy bank texnologiyalarini tatbiq etish zarur emas deb hisoblayotganligini ko'rsatdi. Bu esa, bank imidjiga qolaversa, uning raqobatchilari oldida mijozlarini yo'qotib qo'yishga olib kelishi mumkin.

Raqamli bank vositalaridan qaysi birlaridan bankingizda foydalaniladi? - savoliga jahon bank amaliyotida foydalanib kelayotgan raqamli bank vositalari nomlari keltirilib ulardan bank faoliyatida foydalanilayotganlari so'raldi. Natijaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, eng ko'p tanlangan raqamli bank vositalari bu "24/7 rejimida ishlash", "Internet banking", "Mobil banking va onlayn reklama vositalari" ekanligi ko'rsatilgan. Ikkinchi o'rinda "video marketing", "raqamli marketing va sun'iy intellektlar" ko'rsatilgan. Quvonarli tomoni bank respondentlarining sun'iy intellekt raqamli bank vositasini ham tanlab ovoz berganlar soni yuqori ulushga ega ekanligidir. Ammo deyarli barcha banklarda raqamli bank vositalari SEO qidiruv tizimi, B2B platformasi, B2C platformasi,

CRM mijozlar bilan ishlash tizimi hamda bulutli platformalardan foydalanish darajasini juda past deb hisoblash mumkin.

5-jadval

Tijorat banklarining iqtisodiy ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)²⁵

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Asaka bank						
Aktiv	24274	30355	34698	45518	50804	52521
Majburiyat	21190	27187	28570	39093	44300	46058
Kapital	3083	3168	6128	6426	6505	6463
Depozit	8253	6770	8099	9705	10729	11161
Foizli daromad	922	1609	2574	3410	3926	1859
Foizsiz daromad	509	1147	881	1762	1550	906
Foizli xarajat	649	1115	1714	2433	3106	1370
Foizsiz xarajat	90	67	227	462	285	157
Kredit	15812	24750	26322	34122	37685	36797
Agrobank						
Aktiv	4982	10363	18488	31211	39971	44300
Majburiyat	3608	8149	13861	25840	30625	35335
Kapital	1374	2214	4627	5371	9346	8964
Depozit	1795	2651	5454	9037	11839	11230
Foizli daromad	600	1024	2267	4286	6263	2937
Foizsiz daromad	606	375	1226	905	1445	1511
Foizli xarajat	446	516	1540	3118	4869	2363
Foizsiz xarajat	172	161	834	496	424	562
Kredit	3373	8750	15865	24997	32258	36548
O'zsanoatqurilishbank						
Aktiv	24019	30501	34892	49045	56511	55759
Majburiyat	21778	27653	28645	42340	48810	48189
Kapital	2241	2848	6247	6704	7701	7570
Depozit	3297	4833	9004	11437	12607	11492
Foizli daromad	751	1506	2516	3646	4484	2207
Foizsiz daromad	639	580	1422	1691	2164	1750
Foizli xarajat	460	858	1459	2022	2417	1148
Foizsiz xarajat	67	144	185	285	433	412
Kredit	20211	27293	29442	39898	43148	42893
Milliybank						
Aktiv	51473	56525	66605	79861	89919	114811
Majburiyat	46667	50803	53464	65988	75151	99416
Kapital	4807	5722	13141	13873	14769	15395
Depozit	11636	11741	15284	17194	22083	31924
Foizli daromad	1343	2679	4376	5922	6321	3939
Foizsiz daromad	927	849	1603	1679	2638	2869
Foizli xarajat	836	1691	2830	3283	3464	1819
Foizsiz xarajat	113	154	239	367	277	666
Kredit	35182	46574	54989	65598	74033	80476

²⁵ Mamlakatimizdagi tijorat banklari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

5-jadvalda mamlakatimizdagi tijorat banklarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini ko'rishimiz mumkin. Asaka bankda aktivlar miqdori 2017-yilda 24274 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib yillar bo'yicha bu ko'rsatkich o'sish sur'atini (2018-yilda 30355 mlrd. so'mni, 2019-yilda 34698 mlrd. so'mni, 2020-yilda 45518 mlrd. so'mni, 2021-yilda 50804 mlrd. so'mni, 2022-yilda esa 52521 mlrd. so'm) namoyon qiladi. Asaka bankning majburiyatlari miqdorining o'zgarishini tahlil qiladigan bo'lsak 2017-yilda 21190 mlrd. so'mni, 2018-yilda 27187 mlrd. so'mni, 2019-yilda 28570 mlrd. so'mni, 2020-yilda 39093 mlrd. so'mni, 2021-yilda 44300 mlrd. so'mni va 2022-yilda 46058 mlrd. so'm tashkil etganligi va o'sib borish xarakterga ega ekanligini ko'ramiz. Jadval ma'lumotlaridan boshqa banklar, Agrobank, O'zsanoatqurilishbank va Milliybankda ham aktivlar va majburiyatlar miqdorining yillar bo'yicha oshib borayotganligini, ularning bank xizmatlari bozoridagi faoliyati tobora kengayayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Ayrim tadqiqotlarda raqamli bank marketing texnologiyalarini samaradorligini baholashni asosiy ko'rsatkichlari sifatida "ishlash rejalarni, maqsadlarni amalga oshirish, ularni muayyan natija ko'rsatkichlarini oldindan belgilangan qiymatlari bilan taqqoslanadigan aniq natijalarga aylantirish bilan bog'liq. Raqamli marketing samaradorligining asosiy ishlash ko'rsatkichlari konvertasiya, trafik, o'zaro ta'sir va to'g'ridan-to'g'ri sotish ko'rsatkichlarini"²⁶ qamrab oladi deb belgilab berilgan.

Ushbu ko'rsatkichlarni tizimlashtirish uchun quyidagicha kattaliklar kiritib olamiz:

1. Taassurot ko'rsatkichlari. Bunda bankning asosiy veb-saytidan foydalanuvchilar soni (S_f), bank marketing reklamasini sayt orqali ko'rganlar soni (S_{RK}) va ushbu ma'lumotlarni taqdim etgan aloqa kanallari ulushi (S_{AK}). Uning umumiy funksiya qiymatini quyidagicha belgilab olamiz:

$$k = \{S_f; S_{RK}; S_{AK}\} \quad (1)$$

Hisoblash formulasi quyidagicha:

$$k = \frac{(S_f - S_{RK})}{S_{RK}} * S_{AK} \quad (2)$$

Bu yerda, T_k ning qiymati qanchalik 1 ga yaqinlashsa, unda taassurot ko'rsatkichlari shunchalik samarali hisoblanadi. Agar T_k ning qiymati qanchalik 100 ga yaqinlashsa unda samarasiz hisoblanadi. Misol tariqasida, Milliybank o'z saytida quyidagi yangilikni joylashtirgan holda u yangilikni bank marketing texnologiyasi uchun samarali yoki samarasiz ekanligini aniqlaymiz.

Ushbu yangilik "Talabalarga berilayotgan keng imkoniyatlar" deb nomlangan, ushbu yangilik raqamli bank marketing texnologiyalari asosida yosh mutaxassislarni bankka jalb etishga qaratilgan. Xuddi shunday Asaka bankda

²⁶ <https://discourse.etu.ru/assets/files/v.-p.-semenov-a.-g.-budrin-a.-v.-soldatova.pdf>

“Asaka bankdan eng yaxshi takliflar” bo‘yicha yangi raqamli bank xizmatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni olish uchun, O‘zsanoatqurilishbankda “Mobil aloqa uchun tezkor to‘lov” yangiligi bo‘yicha hamda Agrobank uchun “Ommabop mahsulotlar” xizmatlariga tashrif buyurgan mijozlar sonidan kelib chiqib baholaymiz.

6-jadval

Tijorat banklarida taassurot ko‘rsatkichlarini samaradorligini baholash ²⁷

Banklar saytidagi yangiliklar	Veb-saytidan foydalanuvchilar soni (S_f)	Bank marketing reklamasini sayt orqali ko‘rganlar soni (S_{Rk})	Taqdim etgan aloqa kanallari ulushi (S_{Ak})	Samaradorligi
Milliybank: Talabalarga berilayotgan keng imkoniyatlar	530	120	75	58,02
Asaka bank: “Asakabankdan eng yaxshi takliflar”	483	95	82	65,87
O‘zsanoatqurilishbank: “Mobil aloqa uchun tezkor to‘lov”	350	135	90	55,79
Agrobank uchun “Ommabop mahsulotlar”	501	143	85	60,74

2) formuladan foydalangan holda, samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblaymiz:

$$T_{\text{milliybank}} = \frac{S_f - S_{Rk}}{S_{Rk}} * S_{Ak} = \frac{(530 - 120)}{120} * 75 = 58,03 \quad (2)$$

Qolgan banklarni ham xuddi shunday hisoblab topamiz. Natijada tijorat banklarini veb-saytidagi raqamli bank marketing yangiliklari bo‘yicha eng samaradorlikka erishgan banklar O‘zsanoatqurilishbank va Milliybank ekanligini aniqladik.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ko‘rsatkichlar tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan raqamli bank marketing texnologiyalarining bitta vositasi, ya‘ni veb-saytlar orqali xizmat ko‘rsatishning samaradorligini aniqlash usullari hisoblanadi. Keyingi taklif etilayotgan model “Mijozlar ishonchli modeli” deb nomlanib, uni hisoblashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanamiz:

M_t – bankdan mijozlar talab qiladigan vositalar soni;

K_{soni} – bank bilan mijoz muloqot qiladigan kanallar soni;

J_t – banklar tomonidan mijozlarga javob berish tezligi (vaqti);

S_m – bankdagi ishonchli mijozlar soni;

S_{mm} – bankdagi muammoli mijozlar soni;

Q_{ms} – mijoz tomonidan berilgan savollarga bank tomonidan berilgan javoblarga qoniqqan mijozlar soni;

²⁷ Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

X_{mq} – mijozlarga taqdim etilgan xizmat va servislar soni;

SN_{ms} – bank mahsulotiga talab ortib borish orqali mijozlar sonini ko‘payib borishi soni;

X_r – bank xizmatidan norozi bo‘lgan mijozlar soni.

Belgilab olingan kattaliklar asosida tijorat banklarida bir yil davomida mijozlar bilan ishlash modelini tahlil qilib chiqamiz.

Ushbu modelni hisoblash formulasini quyidagicha belgilab olamiz:

$$R_{MIM} = \frac{K_{soni} + J_t + S_m + S_{mm} + Q_{ms} + X_{mq} + SN_{ms}}{M_t + X_r} \quad (3)$$

“Mijozlar ishonchli modeli” asosida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlar uchun mezonni ishlab chiqamiz. Ushbu mezon orqali biz mijozlarning bankka bo‘lgan ishonchini bilib olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

$$R_{MIM} = \left\{ \begin{array}{l} 0 < R_{MIM} \leq 500 \text{ bo'lsa, bankka nisbatan mijozlar ishonchi past;} \\ 500 < R_{MIM} \leq 1000 \text{ bo'lsa, bankka nisbatan mijozlar ishonchi o'rtacha;} \\ 1000 < R_{MIM} \leq 1500 \text{ bo'lsa, bankka nisbatan mijozlar ishonchi yuqori;} \\ 1500 < R_{MIM} \text{ va undan yuqori, bo'lsa, bankka nisbatan mijozlar ishonchi juda yuqori.} \end{array} \right\}$$

Demak, yuqoridagi ko‘rsatkichlardan foydalangan holda (3) formula asosida “Mijozlarni ishonchli modeli” ko‘rsatkichini har bir bank bo‘yicha hisoblab topamiz.

$$\begin{aligned} R_{MIM} &= \frac{K_{soni} + J_t + S_m + S_{mm} + Q_{ms} + X_{mq} + SN_{ms}}{M_t + X_r} \\ &= \frac{25 + 1836 + 12300 + 3000 + 120000 + 2300 + 300}{110 + 12} \\ &= 1145,68 \end{aligned}$$

Olingan ko‘rsatkichlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, Milliybank, Asaka bank hamda Agrobanklarda 2021 yilda mezon oralig‘idan kelib chiqib baholaydigan bo‘lsak, bankka nisbatan mijozlar ishonchi yuqori bo‘lgan, O‘zsanoatqurilishbankni ko‘rsatkichi bo‘yicha esa, bankka bo‘lgan mijozlar ishonchi juda yuqori bo‘lgan.

Agar bank tomonidan raqamli marketing texnologiyalari asosida taqdim etilgan mahsulot bank uchun daromad olib kelishi yoki o‘zini oqlamasligini aniqlash talab etilsa, unda iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimida daromad va xarajatlarning xavfsizlik nuqtasini topish talab etiladi. Iqtisodiy jihatdan uni amalga oshirish grafigi quyidagicha:

Tijorat banklari tomonidan masofadan xizmat ko‘rsatuvchi tizimlaridan (onlayn-banking, internet banking, mobil’ banking, sms-banking) foydalanuvchilar soni eng ko‘p bu Agrobankda 2019-yilga nisbatan 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 2329545 nafarga oshgan bo‘lsa, O‘zsanoatqurilishbank tizimlaridan foydalanuvchilar soni 2018-yilga nisbatan 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra

2425258 nafarga oshgan. Qolgan ikkita bankda o‘shish sur‘ati past bo‘lsada, bu tizimdan foydalanuvchilar soni ortib borayotganini tahlil qilish mumkin (10-rasm).




10-rasm. Masofadan xizmat ko‘rsatuvchi tizimlardan (onlayn-banking, internet banking, mobil banking, sms-banking) foydalanuvchilar soni²⁸

Hozirgi kunda ushbu tijorat banklarida qo‘llanilayotgan raqamli bank marketing texnologiyalari vositalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2015 yilda barcha banklarda raqamli bank marketing mahsulotlari 3 tani tashkil etgan. Bu mahsulotlarga internet xizmatlari, mobil operatorlar to‘lovlari va kommunal tashkilotlar xizmatlarini keltirish mumkin. 2022 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra banklarda raqamli bank marketing xizmatlari qatoriga QR-online hamda Identifikasiyalash (Face ID)larni qo‘shish mumkin. Natijada, ushbu yirik banklarimizdagi raqamli bank marketing mahsulotlari soni 12 tani tashkil etmoqda.

Ushbu xizmatlar juda kam bo‘lsada, lekin ulardan bank mijozlari samarali foydalanayotganini aytib o‘tish mumkin. Bu jarayon yanada rivojlanib borishini e‘tiborga oladigan bo‘lsak, banklar tomonidan yangidan-yangi raqamli bank marketing mahsulotlarini o‘z faoliyatiga kiritishi muhim hisoblanadi.


Dissertasiyaning beshinchi bobi **“Tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalarini samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqishning konseptual asoslari”** deb nomlanib, bunda tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish yo‘llari, banklar faoliyatida raqamli marketing texnologiyalarini amaliyotga joriy etish mexanizmi va uni amalga oshirish asoslari hamda tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalaridan samarali foydalanishning konseptual asoslari va algoritmi ishlab chiqilgan (11-rasm).

²⁸ <https://cbu.uz/oz/statistics/buletin/592793/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



11-rasm. Tijorat banklarida raqamlashtirish jarayonini amalga oshirish algoritmi²⁹

Tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish jahon amaliyotida keng foydalanmoqda. Tijorat banklari tomonidan marketing strategiyasini to‘g‘ri ishlab chiqilishi ularning banklar bozorida faoliyatini rivojlantirishga muhim hissa qo‘shish imkonini beradi.




12-rasm. Raquamli bank marketing texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan mahsulotni bozorga chiqarish mexanizmi³⁰

²⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Raqamli bank marketing strategiyasini ishlab chiqishda banklar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar bugungi kunda yetarli emas. Banklar tomonidan mijozlar uchun taklif etilayotgan bugungi kundagi marketing texnologiyalari ayrim mijozlar imkoniyatini yoki talablarini qondirishi mumkin. Ammo bank mijozlari soni pandemiya sharoitida masofadan xizmatlarga bo‘lgan talabning ortib borishi bu taklif etilayotgan xizmatlarni yetarli emasligini anglatadi.

Oddiy usul orqali bank raqamli bank texnologiyalari samaradorligini baholashda banklar asosiy e’tiborini raqamli bank texnologiyalariga ketadigan xarajatni hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini yig‘indisini olgan holda, u texnologiya orqali keladigan foydadan ayirib, qolgan qismini bank daromadi sifatida samaradorligi baholanadi.

Ikkinchi usul, bu matrisalar usuli deb nomlanib bunda, banklar tomonidan raqamli marketing texnologiyalariga ketadigan harajatlarning barchasi matrisa shaklida tuzib olinadi. Bu usulda bank tomonidan raqamli bank marketing texnologiyalari asosida keladigan foydani hisoblab topishda, foydani barcha xarajatlarga nisbati orqali topiladi. Bu oddiy usulga nisbatan qulayligi bunda bankning barcha xarajatlari kiritilishi bilan baholanadi.



13-rasm. Raqamli bank marketing konsepsiyasi³¹

³⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

³¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Uchinchi, zanjirsimon usul hisoblanib bunda bank xarajatlarini hisoblab topish formulasi bo'lib hisoblanadi. Tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilayotgan har qanday strategiya bu banklarning keyingi yil yoki uning 5 yil davomida rivojlanish konsepsiyasini belgilab berishi zarurligini anglatadi. Tijorat banklari tomonidan raqamli marketing strategiyasini tuzishda asosiy e'tibor qaratish zarur bo'ladigan yo'nalishlar bu tijorat banklarining raqamlashtirish faoliyatini to'g'ri tashkil etganligi bilan belgilanadi. Ayrim holatlarda raqamlashtirish jarayonlarini tijorat banklarida to'g'ri tashkil etmaslik oqibatida bu jarayonlar strategiyasi o'zini oqlamasligi mumkin (12-rasm).

Yuqorida taklif etilayotgan tijorat banklarida raqamlashtirish jarayonini amalga oshirish algoritmda, birinchi navbatda tijorat banklarini raqamlashtirish jarayonini amalga oshirish bilan belgilanadi (13-rasm).

Tijorat banki ushbu taklif etilgan raqamli marketing texnologiyalarni bank faoliyatiga foyda yoki zarar olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarini ko'rib chiqadi. Bunda, tijorat banklari taklif etilgan raqamli marketing texnologiyalari uchun ketgan xarajatlar miqdori va foyda miqdori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jarayonlarini turli modellar orqali baholab boradi. Hozirgi kunda bunday bog'liqlikni baholash usullari sifatida oddiy, matrisali hamda zanjirsimon usullaridan foydalanish taklif etilmoqda. Demak, banklarning raqamli marketing texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan mahsuloti xarajatlarini hisoblash orqali, olinadigan foydani hisobga olgan holda samaradorligini baholashda uning rentabelligi orqali baholash taklif etiladi.

XULOSA

Dissertasiya ishidan olingan tahlil va xulosalar asosida tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini baholash bo'yicha quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Delfi usuli orqali tijorat banklari tomonidan raqamli bank texnologiyalarini hamda raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini baholash bo'yicha so'rovnomalar o'tkazildi. O'tkazilgan so'rovnomalar asosida tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini baholash bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi. Ekspertlar fikricha raqamli marketing texnologiyalarini bank faoliyatiga qo'llash uchun eng birinchi omil bu sifatli internet (36) ekanligi qayd etilgan. Ikkinchi muhim omil sifatida zamonaviy boshqaruv (38) bo'lsa, uchinchi omil sifatida malakali kadrlar (51) ekanligi aniqlandi.

2. Raqamli bank marketingning beshta strategiyasini qo'llash taklif etiladi. Bunda, (SEO) qidiruv tizimini optimallashtirish, kontent-marketingni yo'lga qo'yish, raqamli reklamani yaratish, elektron pochtaga axborotlar byulletenini kiritish hamda mobil hamkorlik veb-saytlarini yaratish zarurligi asoslab berildi.

3. Tijorat banklari raqamli bank marketing faoliyati orqali banklar bozorida imidjini oshirishda "Onlayn reklama", "Raqamli reklama" hamda "Video reklama" vositalariga alohida e'tibor qaratish zarurligi aniqlandi. Banklarda ishonchli mijozlar ma'lumotlari platformasini yaratish orqali banklarning yangi raqamli mahsulotini ijobiy va salbiy jihatlarni tahlilini o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4. Bank raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishda yirik reklama maydonlaridan voz kechib, hozirgi kunda qulay va arzon reklama maydoni "Microinfluenza" (mikro ta'sir ko'rsatuvchi marketing texnologiyasi)dan foydalanish tavsiya etildi. Tijorat banklarida raqamli marketing texnologiyalarini amalga oshirishda "bank-mijoz-mahsulot" strategiyasini ishlab chiqish hamda raqamli marketing texnologiyalarini banklarda qo'llashda "doimiy mijoz-yangi mijoz-kuzatuvchi mijoz" bazasini yaratish orqali ularning bozordagi holatiga baho berildi.

5. Raqamli marketing texnologiyalari asosida bank mahsulotlarini bozorga taklif qilishda mahsulotlarning yashash sikliga alohida e'tibor qaratish zarurligi asoslandi. SWOT tahlilini o'tkazishda banklar asosiy e'tiborini bankning iqtisodiy ko'rsatkichlarini bank faoliyatini rivojlantirishdagi o'rniga baho berishga, yangi raqamli bank texnologiyalarini qo'llash orqali uning bozordagi kuchli va kuchsiz tomonlarini tahliliga, xizmat, servis va yangi bank mahsulotlarini joriy etishda raqamli bank marketingini roliga e'tibor qaratish zarurligi aniqlandi.

6. Taklif etilayotgan "Mijozlar ishonchli modeli" asosida mijozlar tomonidan banklarga bo'lgan ishonchni aniqlash funktsiya va formulasi ishlab chiqildi. Bunda, olingan ko'rsatkichlar asosida Milliy bank, Asaka bank hamda Agrobanklarda 2021 yilda mezon oralig'idan kelib chiqib baholanganda, bankka nisbatan mijozlar ishonchi yuqori bo'lgan, O'zsanoatqurilish bankni ko'rsatkichi bo'yicha esa, bankka bo'lgan mijozlar ishonchi juda yuqori bo'lganligi asoslandi.

7. Tijorat banklari raqamli bank marketing texnologiyalari asosida yangi mahsulot taqdim etishga ketadigan xarajatlar holatiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Yaratilgan yangi bank mahsulotlari xarajatlarini baholashda ularning uchta turiga proporsional, progressiv va degressiv holatiga e'tibor qaratish muhimligi asoslab berildi.

8. Raqamli bank marketing mahsulotlarini mijozlarga yetkazishdagi eng qulay va xarajat harakati aniq bo'lgan reklamaga alohida e'tibor qaratish hamda bank mijozlarga taklif etgan mahsuloti orqali oladigan "kelajakdagi iqtisodiy foyda"ga erishishi asoslandi.

9. Tijorat banklari tomonidan blokcheyn asosida qimmatli qog'ozlarni sotib olish (sotish) imkonini beruvchi mobil' ilovadan foydalanish, ular uchun (brokerlar, dilerlar, soliqlar va komissiyalar) ketadigan xarajatlarga ehtiyoj qolmasligiga olib kelishi asoslandi.

10. Bank mijozlariga xizmat ko'rsatishni raqamli biometrik identifikasiya qilishni qo'llash orqali, masofadan moliyaviy xizmat ko'rsatishlar tizimi takomillashtirildi. Banklarda mijozlarga berilgan kredit ballarini hisoblash usullariga sun'iy intellekt texnologiyasining "yuzdan tanish" funksiyasini kiritish orqali baholash taklif etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/10.12.2019.I.16.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

БЕКМУРАДОВА ГУЗАЛ АДХАМОВНА

**ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТЕХНОЛОГИЙ
ЦИФРОВОГО МАРКЕТИНГА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ
БАНКОВ**

**08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит
08.00.11 – Маркетинг**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (DSc)

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под № В2019.2.DSc/Iqt177 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный консультант: **Мустафакулов Шерзод Игамбердиевич**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Болтабаев Махмуджон Рустамович**
доктор экономических наук, профессор

Жумаев Нодир Хосиятович
доктор экономических наук, профессор

Пулатов Дилшод Хакбердиевич
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Ташкентский финансовый институт**

Защита диссертации состоится в _____ часов «__» _____ 2023 г. на заседании Научного совета DSc.03/10.12.2019 I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, город Ташкент, ул. Ислама Каримова, д. 49. Тел: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрировано под номером _____). Адрес: 100066, город Ташкент, ул. Ислама Каримова, д.49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 года
(реестр протокола рассылки №__ от «__» _____ 2023 года).

М.П. Эшов

Председатель научного совета, по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

У.В. Гафуров

Секретарь научного совета, по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

С.К. Худойкулов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора экономических наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Развитие технологических инноваций в глобальном масштабе и постоянно нарастающий рост киберугроз ставят актуальные задачи перед информационно-технологическим сообществом, научными и экспертными кругами. Согласно последнему прогнозу Gartner, «ожидается, что глобальные расходы на информационные технологии достигнут \$4,5 трлн в 2023 году, что на 2,4 процента больше, чем в 2022 году. Хотя инфляция продолжает снижать покупательную способность потребителей и снижать затраты на устройства, ожидается, что расходы предприятий и организаций на информационные технологии останутся высокими¹. Кроме того, «согласно анализу, проведенному авторитетными международными организациями, Цифровая экономика увеличит ВВП как минимум на 30 процентов»². Эти обстоятельства свидетельствуют о том, насколько высока роль банковско-финансовой системы, являющейся локомотивом экономики, в устойчивом развитии мировой экономики и, следовательно, о необходимости проведения научных исследований в этом направлении в новом современном формате. Трансформация банковской деятельности в мире, широкое внедрение цифровых технологий в отрасль, предотвращение киберугроз, развитие технологий цифрового маркетинга в банках, увеличение масштабов удаленных банковских услуг в условиях пандемии составляют основное направление исследований, проводимых на международном уровне.

По результатам исследований, проведенных в этих направлениях, широко установлено использование различных инструментов цифровых банковских маркетинговых технологий в банковской деятельности некоторых развитых и развивающихся стран. В то же время, оценка эффективности цифровых банковских маркетинговых технологий и влияния их банковской деятельности на экономическое развитие недостаточно проанализирована посредством эмпирических исследований, а также мало изучен механизм организации и реализации цифровых банковских маркетинговых мероприятий во время пандемии. Совершенствование системы защиты интересов потребителей продуктов цифровых банковских маркетинговых технологий, обеспечение уровня безопасности при доставке этих продуктов клиентам и выхода созданного продукта на банковский рынок развитых стран, а также наличие проблем в широкой популяризации инструментов цифрового банковского маркетинга в коммерческих банках и их научно-методическая неизученность еще больше повышает актуальность исследовательской работы.

В настоящее время в Узбекистане реализуются диверсификация структуры экономики и повышение ее конкурентоспособности; последовательное внедрение рыночных механизмов во все отрасли

¹ <https://www.gartner.com/en/newsroom/press-releases/2023-01-18-gartner-forecasts-worldwide-it-spending-to-grow-2-percent-in-2023>

² <https://kun.uz/news/2020/07/06/raqamli-iqtisodiyot-rivojlanish-trendlari-va-xususiyatlari>

экономики; сокращение бедности и повышение благосостояния населения; стремительное развитие цифровой экономики; трансформация государственных компаний; обеспечение устойчивого экономического развития и роста за счет сокращения участия государства в экономике – все это приоритеты экономических реформ.

В рамках данных экономических реформ поставлены актуальные задачи по “дальнейшей активизации процесса трансформации коммерческих банков”, “выводу на новый уровень банковских услуг, оказываемых клиентам”, “внедрению цифрового маркетинга в управление коммерческими банками, систематизации основных критериев разработки стратегии и тактики банковской деятельности”, показывает развитие банковского бизнеса в Республике Узбекистан, необходимость внедрения автоматизации, новейших технических средств и передовых банковских технологий для вывода на рынок банковских продуктов и услуг, проведения исследовательских работ по повышению весомости и качества маркетинговой стратегии цифрового банка в структуре услуг.

Данное диссертационное исследование в определенной мере служит реализации задач, определенных в указе Президента Республики Узбекистан № УП-6079 «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мер по ее эффективной реализации» от 5 октября 2020 года, №УП-5992 «О стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы» от 12 мая 2020 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-3832 «О мерах по развитию цифровой экономики в Республике Узбекистан» от 3 июля 2018 года, №ПП-4022 «О мерах по дальнейшей модернизации цифровой инфраструктуры в целях развития цифровой экономики» от 21 ноября 2018 года, а также других нормативных документах, относящихся к данной сфере. Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных исследований по теме диссертации³.
Многогранные исследования, связанные с основными направлениями

³ Обзор зарубежных исследований по теме диссертации разработан на основе следующих источников: Online banking and digital finance (АКШ, FinTech), MSc Digital Banking and Finance (Буюк Британия), https://www.global-business-school.org/info/program_description/masters-degree-programs/master-digital-financial-management-online?ysclid=14zeg3vf1n935842036, https://www.lse.ac.uk/Statistics/Research/Probability-in-Finance-and-Insurance?from_serp=1; Toulouse School of National Bureau of Economic Research (NBER). https://www.nber.org/papers?page=1&perPage=50&sortBy=public_date; Wharton School of the University of Pennsylvania. <https://www.wharton.upenn.edu/research-centers/>; Massachusetts Institute of technology(MIT).<https://economics.mit.edu/faculty/afink>; Institute for Economic Policy Research of the Stanford University. <https://siepr.stanford.edu/people/senior-fellows>; Department of Economics, Columbia university. <https://econ.columbia.edu/>; London School of Economics and Political Science. <https://www.stir.ac.uk/courses/pg-taught/digital-banking-finance/>, Economics (TSE). <https://www.tse-fr.eu/solving-key-economic-and-social-issues>; International Association of Insurance Supervisors. <https://www.iaisweb.org/home>; European Insurance and Occupational Pensions Authority.

